

## O‘SMIRLIK VA O‘SPRINLIK YOSH DAVRIDA DIQQATNING TA’LIM OLISHDAGI PSIXOLOGIK O‘RNI VA AHAMIYATI

**Karimov Sardorbek Anvarjon o‘g‘li**

TDTU Pedagogika va psixologiya kafedrasи assistent o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta’lim olish jarayonini yaxshilash uchun bilish jarayonlarini rivojlantirish zarurligi va bilish jarayonlari va ta’lim olishda diqqatning o‘mi va ahamiyati haqida bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** diqqat, ixtiyoriy diqqat, ixtiyorsiz diqqat, bilish jarayonlari.

Ta’lim olish jarayoni doimo murakkab va uzlusiz hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirahmonovich Mirziyoyevning “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishga e’tibor qaratish xar qachongidan xam muhimdir” deya aytgan so‘zlarida ham ta’lim jarayoni muhim ahamiyatga ega ekanligi talabalar bilim olish jarayonini rivojlanirishga bo‘lgan o‘rganish va tadqiqot ishlarini olib boorish uchun muhim sabablardan biridir. Ta’lim jarayonida talabalarni bilim olishi va o‘zlashtirish jarayonini oshirish uchun ko‘plab izlanishlar, tajribalar psixologlar va pedagoglar tomonidan o‘tkazilgan. Lekin ushbu izlanishlarning barchasini ham to‘liq natija berdi deya olmaymiz. Albatta bilim olish darajasi ta’lim sifatiga va bo‘lajak kadrlarning mehnat bozorida o‘z o‘rinlariga ega bo‘lishlarida muhim hisoblanadi. Ammo talabalarning hammasi ham berilgan bilimlarni a’lo darajada o‘zlashtira olmayotganligi kabi muamolar deyarli barcha ta’lim muassasalarida kuzatilmogda. O‘qish uchun tavsiya etilgan darsliklar va turli xil adabiyotlarni talabalar o‘qishi va o‘rganishi uchun, ularning bilish jarayonlari ham katta ahmiyatga ega. Har bir insonning o‘ziga xos e’tibor darajasi bor. Kimdir diqqatini biron bir vazifaga osongina qaratadi, kimdir buning uchun ko‘p harakat qilishi kerak. Qanday bo‘lmisin, diqqatni, xotirani, fikrlashni rivojlanirish bilan shug‘ullanish kerak, chunki bu yanada samaraliroq natijaga erishishning, muvaffaqiyatli bo‘lishning to‘g‘ri yo‘lidir. Odamga har bir daqiqada atrof-muhitdan juda ko‘p narsa va hodisalar ta’sir etib turadi. Lekin odamga ta’sir etayotgan bu narsa va hodisalarning hammasi bir xil anqlikda aks ettirilmaydi. Ulardan ayrimlari aniq yaqqol aks ettirilsa, boshqa birlari shunchaki juda xira aks ettiriladi, yoki umuman aks ettirilmaydi. Bu esa ana shu odamga ta’sir etayotgan narsalarga diqqatning qay-

darajada qaratilishiga bog‘liqdir. Demak, diqqatimiz qaratilgan narsa va hodisalar aniq va to‘la aks ettiriladi. Diqqat – psixik faoliyatning yunaltirilishi va shaxs uchun ahamiyatli bo‘lgan obyekt ustida to‘planishidan iborat bo‘lgan jarayondir. Psixik faoliyatning yo‘naltirilishi deganda uning tanlovchilik xarakteri, obyektini ixtiyoriy yoki beixtiyoriy tanlashi tushuniladi. O‘quvchi matabda o‘qituvchining tushuntirishlariga qulq solayotganda, mana shu eshitish faoliyatini ongli ravishda tanlab olgan, o‘z diqqatini eshitish faoliyatiga ongli ravishda qaratgan bo‘ladi. O‘quvchining biror boshqa narsaga chalg‘imasdan, o‘quv materialining mazmuniga e’tiborini qaratishida uning diqqatining yo‘nalishi ifodalanadi. Psixik faoliyatning yo‘naltirilishi deganda faqat ana shu faoliyatni tanlash tushunilib qolmay, balki ana shu tanlaganini saqlab qolish va qo‘llab – quvvatlash ham tushuniladi. Diqqat psixik faoliyatining yunaltirilishi bilan birga uning to‘planishini taqozo etadi. Psixik faoliyatning bir joyga to‘planishi mazkur faoliyatga hech qanday aloqasi bo‘lmagan xamma boshqa narsalardan diqqatni chalg‘itish demakdir. Diqqatning bir joyga to‘planishi deganda mazkur faoliyatga butunlay berilish, unga ozmi – ko‘pmi chuqur e’tibor berish tushuniladi. Diqqat xar qanday faoliyatning muhim shartidir. Diqqatsiz xatto eng oddiy ishlarni xam bajarish mumkin emas. Diqqat mehnatning barcha jarayonida, ijodiy faoliyatda, o‘qishda ayniqsa katta ahamiyatga ega.

Diqqat shundan iboratki, u nimaga qaratilgan bo‘lsa uni ko‘rish demakdir. Yuqorida mulohazalardan kelib chiqqan holda N.F.Dobrinin shunday deydi, diqqatni kishi psixik faoliyatini biron-bir ob’ektga yo‘naltirishi va to‘plash bilan boshqa ob’ektlardan chalg‘ish orqali tushuntiradi. Psixologiya fanining aksariyat manbalarida diqqat deb psixik faoliyatning yo‘naltirilishi va albatta shaxs uchun ma’lum darajada ahamiyatga ega bo‘lgan ob’yektning ustida to‘planishi tushuniladi. Diqqat shunday muhim bir psixik jarayonki, u insonning jamiki faoliyatlarda bevosita ishtirok etadi. I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta’limoti va A.A.Uxtomskiylar tomonidan ilgari surilgan dominantlik tamoyili va ularning zamondoshlari tadqiqotlarida diqqatning fiziologik asoslari va mexanizmlarini ilmiy nuqtai nazardan tushuntirish imkonini yaratdi. Diqqatning barqarorlik, ko‘chuvchanlik va bo‘linuvchilik kabi xususiyatlari, ko‘lami bor. Diqqatning barqarorligi uning yagona, umumiylasman, kitob o‘qish, masala yechish kabi ishga xizmat qiluvchi narsa yoki hodisaga uzoq muddat jalb bo‘la olishidan iborat. Bunda harakat obyektlari masalan, kitob matni, masalada berilgan sonlar va shu kabilar hamda harakatning o‘zi masalan, masalani yechish yo‘llari o‘zgarib turishi mumkin, lekin faoliyatning umumiylasmi yoki o‘nalishi o‘zgarmay saqlanishi lozim. Ko‘chuvchan Diqqat bir faoliyatdan yoki narsadan boshqa faoliyat yoki narsaga tez jalb bo‘ladi. Bu xususiyat Diqqatning avvalgi narsaga qay darajada qaratilganligiga va yangi faoliyatning xususiyatiga uning Diqqatni qanchalik qarata olishiga bog‘liq. Diqqatning bo‘lina olish xususiyati bir

vaqtning o‘zida 2 yoki undan ortiq ish-harakat bajarishda aks etib, ko‘p kasb egalari masalan, o‘qituvchi, shafyor, uchuvchi uchun ayniqsa katta ahamiyatga ega. Bu xususiyat bir faoliyatni bajarish avtomatlashib, ikkinchi faoliyat bir qadar tanish bo‘lib qolgandan keyin tarkib topadi. Diqqat ko‘lami uning eng qisqa vaqt ichida go‘yo birdaniga o‘z doirasiga sig‘dira olishi mumkin bo‘lgan narsalar soni bilan belgilanadi. Shu jihatdan diqqat keng yoki tor bo‘lishi mumkin. Odatda, keng ko‘lamli diqqat yaxshi diqqat hisoblanadi. Diqqat ko‘lami idrok qilinayotgan narsalarning hamda ularni idrok qilayotgan kishi faoliyatining vazifasi va xususiyatiga bog‘liq. Diqqat idrokning faolligini oshiradi va idrokning mukammal, raso va ravshan bo‘lishiga xizmat qiladi. Diqqat ixtiyoriy, ixtiyorsiz va ixtiyoriyidan so‘nggi kabi turlarga bo‘linadi. Diqqatning ixtiyorsiz turi kundalik turmushimizda ko‘proq foydalansak, ta’lim jarayonlarida ixtiyoriy diqqat qanchalik yaxshi rivojlangani ahamiyatlidir. Ixtiyoriy diqqatda irodaviy zo‘r berish jarayoni kechadi: masalan bir maqsad qo‘yib, o‘sha maqsad sari borishda rejalar asosida qanchalik murakkab va qiyin bo‘lmisin, harakat qilib, intilib erishiladi. Bunga misol qilib abiturientlarning Oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun imtixonga tayyorgarlik ko‘rishlarini aytish mumkin. Ixtiyoriyidan so‘nggi diqqatda esa avvaliga biror bir kitob yoki biror bir fan juda ham zerikarli va qiyin tuyilishi, o‘qib o‘rganishni irodaviy zo‘r berib davom ettirilgandan so‘ng esa asta-sekinlik bilan qiziqish paydo bo‘lib ixtiyorsiz ravishda davom etishi mumkin. Diqqatni rivojlantirish uchun mutahasislar tomonidan tavsiya etilgan turli xildagi mashg‘ulotlar mavjud. Lekin ushbu mashg‘ulotlarni bajarish uchun avall insonning sog‘lom ekanligiga ya’ni tibbiy jihatdan muamolari yo‘qligiga ishinch hosil qilish zarur. Bunday mashqlardan biri turli xildagi predmetlar tasvirlangan rasmlardan foydalaniladi. Diqqatida muamosi bor inson o‘ziga notanish bo‘lgan suratga 4-5 sekund diqqatini qaratadi va surat ustini yopib, undagi tasvirlangan predmetlarni tartib bilan sanaydi. Agar suratdagi predmetlarni joylashuvi tartibi bilan sanasa yanada yaxshi. Bu mashq qiziqarli va rivojlantiruvchi mashqlardan hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Sh.M.Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. O‘zbekiston NMIU 2017.
2. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova “Umumiy psixologiya” O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2008 yil.